



I. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 20760,5 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni, shu jumladan yalpi dehqonchilik mahsulotlari 8107,2 mlrd. so‘mni (104,1 foiz), yalpi chorvachilik mahsulotlari 12114,9 mlrd. so‘mni (102,0 foiz), qishloq xo‘jaligida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 210,2 mlrd. so‘mni (141,7 foiz), baliqchilik xo‘jaliklarida 74,5 mlrd. so‘mni (136,2 foiz), ovchilik xo‘jaligida 0,3 mlrd. so‘mni (100,1 foiz), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 253,4 mlrd. so‘mni (102,0 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) hajmining taqsimlanishi, foizda




- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Xizmatlar (ovchilik bilan)




- O'rmon xo'jaligi
- Baliq xo'jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Xizmatlar (ovchilik bilan)

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi va o'sish sur'atlari



Xususan yuqori o'sish sur'atlari Shahrisabz shahar (107,7 foiz), Qarshi va Koson tumanlarida (105,7 foiz), Muborak (105,5 foiz), Mirishkor (103,9 foiz), Kasbi va Shahrisabz tumanlarida (103,4 foiz), Yakkabog' (103,3 foiz), G'uzor (103,2 foiz), Qamashi, Kitob va Nishon tumanlarida (102,4 foiz) o'sish kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 11,6 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Kitob tumani 9,3 foiz, Koson va Yakkabog' tumanlari mos ravishda 9,2 foiz,

Qamashi tumani 8,8 foiz va Qarshi tumani 7,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi, eng kam ulush Qarshi (0,9 foiz) va Shahrisabz (0,5 foiz) shaharlarida qayd etildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>
Viloyat bo'yicha:	20760,5	103,1
<i>shaharlar:</i>		
Qarshi	180,3	101,8
Shahrisabz	111,1	107,7
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	1473,0	103,2
Dehqonobod	883,6	100,3
Qamashi	1833,6	102,4
Qarshi	1623,2	105,7
Koson	1907,5	105,7
Kitob	1937,8	102,4
Mirishkor	1196,7	103,9
Muborak	1105,6	105,5
Nishon	1209,4	102,4
Kasbi	1537,1	103,4
Chiroqchi	2401,0	100,4
Shahrisabz	1461,5	103,4
Yakkabog'	1899,1	103,3

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi
(*umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida*)



- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

DEHQONCHILIK



2021- yilning yanvar-sentabrida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 8107,2 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,1 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 40,1 foizni tashkil qildi.


Hosil yig'imi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 399724 tonna sabzavot (101,6 foiz), 147086 tonna kartoshka (100,2 foiz), 157925 tonna oziqbop poliz (103,1 foiz), 139629 tonna meva va rezavorlar (102,7 foiz), 75872 tonna uzum (102,0 foiz) yig'ib olindi. Bundan tashqari 699611 tonnadan ortiq don ekinlari (84,5 foiz) ishlab chiqarildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


	<i>Fermer xo'jaliklari</i>		<i>Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari</i>		<i>Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar</i>	
	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>tonna</i>	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>
Don	586499	82,0	88148	95,5	24964	122,6
Kartoshka	26838	100,6	119978	100,1	270	112,5
Sabzavotlar	88515	106,1	307780	100,2	3429	112,2
Poliz	70710	103,6	86448	102,4	767	142,0
Mevalar va rezavorlar	73380	104,0	63686	100,7	2563	114,1
Uzum	35364	101,2	39104	102,6	1404	105,3

2021- yilning yanvar-sentabrda hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sabzavotlar (tonna)



Mevalar va rezavorlar (tonna)



CHORVACHILIK



Kelgusida chorvachilik sohasining imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchillik bilan amalga oshirilishi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan tizimli qo'llab-quvvatlashlar natijasida qoramollar bosh sonining o'sishiga, ichki iste'mol bozorlarining chorvachilik mahsulotlari bilan to'yinishiga imkon yaratdi.

2021- yilning yanvar-sentabrida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 12114,9 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 59,9 foizni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 104,6 foiz (jami 1641,8 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 104,5 foiz (539,4 ming bosh), qo'y va echkilar 103,7 foiz (4753,3 ming bosh), otlar 105,1 foiz (33,8 ming bosh), parrandalar 104,8 foizni (6450,7 ming boshni) tashkil etdi.

2021- yil 1- oktabr holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni


	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Yirik shoxli qoramol	1641,8	104,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	76,5	113,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1543,8	104,1
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	21,5	110,8
ulardan sigirlar	539,4	104,5
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	27,3	121,3

	<i>ming bosh</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	505,8	103,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	6,3	114,5
Qo'y va echkilar	4753,3	103,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	291,8	116,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4168,8	102,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	292,7	108,0
Otlar	33,8	105,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	3,7	138,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	28,6	101,4
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,5	116,6
Parrandalar	6450,7	104,8
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	329,7	109,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	4208,9	104,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1912,1	104,2


Umumiy bosh songa nisbatan dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 94,0 foizni, fermer xo'jaliklarida 4,7 foizni tashkil etdi, sigirlar mos ravishda 93,8 va 5,1 foizni, qo'y va echkilar 87,7 va 6,1 foizni, parrandalar 65,2 va 5,1 foizni tashkil qildi.

**2021- yil 1- oktabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shu jumladan: sigirlar (ming bosh)



Qo'ylar va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



2021- yilning yanvar-sentabrda barcha toifadagi xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 223,7 ming tonna go‘sh (2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 101,0 foiz), 883,1 ming tonna sut (101,7 foiz), 347,5 ming dona tuxum (100,1 foiz) ishlab chiqarildi.

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sh, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o‘shishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sh ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 94,3 foiz, sut ishlab chiqarishda 99,6 foiz, tuxum ishlab chiqarishda 77,1 foizni tashkil etdi.




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari


	<i>miqdori</i>	<i>o‘shish sur‘ati, %</i>
Go‘sh (tirik vaznda), ming tn.	223,7	101,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	4,6	126,9
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari	215,6	100,4
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,5	110,9
Sut, ming tn.	883,1	101,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo‘jaliklari	20,6	107,6

	<i>miqdori</i>	<i>o'sish sur'ati, %</i>
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	859,1	101,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3,5	92,8
Tuxum, mln. dona	347,5	100,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	16,6	115,6
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	251,1	111,7
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	79,8	74,0

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish



Tuxum (mln. dona)




Fermer xo'jaliklari. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 5158,0 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 foizni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 25,5 foizni tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 4853,9 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 105,5 foizni, chorvachilik mahsulotlarining hajmi 304,1 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,2 foizni tashkil qildi.

Hosil yig'imi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo'jaliklar tomonidan 586499 tonna don ekinlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati (82,0 foiz), 88515 tonna sabzavot (o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati (106,1 foiz), 26838 tonna kartoshka (100,6 foiz), 70710 tonna oziqbop poliz (103,6 foiz), 73380 tonna meva va rezavorlar (104,0 foiz), 35364 tonna uzum (101,2 foiz) yetishtirildi.

2021- yil yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jalik mahsulotlari

	2020- yil yanvar-sentabr		2021- yil yanvar-sentabr		2020- yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Kartoshka	26683	18,2	26838	18,2	100,6
Sabzavot	83412	21,2	88515	22,1	106,1
Poliz	68241	44,5	70710	44,8	103,6
Meva	70528	51,9	73380	52,6	104,0
Uzum	34928	47,0	35364	46,6	101,2

Yanvar-sentabr oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari



Chorvachilik. 2021- yilning yanvar-sentabrida fermer xo‘jaliklarda tirik vazn hisobida 4620 tonna go‘sh (2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 126,9 foiz), 20568 tonna sut (107,6 foiz), 16634 ming dona tuxum (115,6 foiz) ishlab chiqarildi.

Fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	2020- yil yanvar-sentabr		2021- yil yanvar-sentabr		2020- yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida
	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Go‘sh	3641	1,6	4620	2,1	126,9
Sut	19112	2,2	20568	2,3	107,6
Tuxum, ming dona	14395	4,1	16634	4,8	115,6

2021- yilning 1- oktabr holatiga fermer xo‘jaliklarida 76,5 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 27,3 ming bosh sigir, 291,8 ming bosh qo‘y va echkilar, 3,8 ming bosh ot, 329,7 ming bosh parrandalar mavjud.

Yanvar-sentabr holatiga fermer xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

